

INKLYUZIV TA’LIMDA DEFEKTOLOGIK YONDASHUV: O‘ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI

O‘rmonova Fotima Abdunabiyevna

Andijon viloyati Buloqboishi tumani 4-maktab inklyuziv ta’lim defektologi

Annotatsiya: *Maqolada inklyuziv ta’lim tizimida defektologik yondashuvning mazmuni va ahamiyati, shuningdek, O‘zbekiston tajribasi va uning jahon tajribasi bilan bog‘lanishi, malakali kadrlarni tayyorlash va stajirovkalar orqali rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, defektologiya, maxsus pedagogika, korreksion ishlar, malakali kadrlar, stajirovka, xalqaro tajriba.*

Kirish

Global ta’lim tizimida inklyuziv yondashuv — barcha bolalarga, jumladan rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga teng imkoniyat yaratish maqsadida keng joriy qilinmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun umumta’lim maktablari va markazlarda defektologlar faoliyati kengaymoqda.

Jahon tajribasida inklyuziv ta’lim Skandinaviya mamlakatlarida, AQSh va Yevropaning ko‘plab davlatlarida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Bu tizimda maxsus pedagoglarning malakasi va ularning stajirovkalar orqali rivojlanishi inklyuziv ta’lim sifatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston tajribasi va jahon tajribasini uyg‘unlashtirish muhimdir.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi va mohiyati:

Inklyuziv ta’lim — bu jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor nuqsonlari bo‘lgan bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitish tizimi bo‘lib, uning asosiy tamoyillari:

tenglik va adolat;

individual yondashuv;

diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik;

ijtimoiy moslashuvni qo‘llab-quvvatlash.

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida maktablar va markazlar faoliyati tashkil etilmoqda.

Defektologik yondashuvning mazmuni:

Defektologik yondashuv bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishdagi nuqsonlarni aniqlash va korreksion mashg‘ulotlarni tashkil qilishni talab qiladi. Mazkur yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

bolaning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va diagnostika qilish;

individual ta’lim dasturini ishlab chiqish;

korreksion-pedagogik mashg‘ulotlarni olib borish;

ijtimoiy va emotsional qo‘llab-quvvatlash.



Jahon tajribasida defektologlar multidisipliner jamoa bilan ishlaydi — psixolog, logoped, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. O‘zbekistonda ham bu tizimni rivojlantirish yo‘lida maxsus markazlar tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston tajribasi va jahon tajribasini uyg‘unlashtirish:

O‘zbekistonda inklyuziv ta‘lim dasturlari 2010-yillardan boshlab joriy qilina boshladi.

Hozirgi vaqtda:

umumta‘lim maktablarida maxsus guruhlar tashkil etilgan;

defektolog va logopedlar faoliyati kengaygan;

inklyuziv muhitni yaratish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilgan.

Jahon tajribasida esa:

Skandinaviya davlatlarida bolalar oilasida qo‘llab-quvvatlanadi va maktabda individual dasturlar tuziladi;

AQShda IEP (Individual Education Program) asosida har bir bolaning o‘quv rejasini ishlab chiqadi;

Yevropa mamlakatlarida defektologlar muntazam xalqaro stajirovkalar orqali yangi metodikalarni o‘rganadi.

O‘zbekiston uchun bu tajribani tatbiq etish — malakali kadrlar tayyorlash, ularni xalqaro stajirovkalar orqali rivojlantirish va zamonaviy metodlarni o‘rganish orqali amalga oshirilmoqda.

Malakali kadrlar va stajirovka tizimi

Inklyuziv ta‘limda defektologlar va maxsus pedagoglarning malakasi sifatini belgilovchi asosiy omildir. Shu maqsadda:

Kadrlarni tayyorlash: pedagogika universitetlari va maxsus markazlar malakali defektologlarni tayyorlaydi.

Stajirovkalar: mutaxassislar jahon tajribasiga ega markazlarda malaka oshiradi (Finlandiya, Shvetsiya, Germaniya).

Doimiy rivojlanish: seminarlar, master-klasslar va xalqaro konferensiyalar orqali bilim va ko‘nikmalar yangilanadi.

Bu yondashuv orqali O‘zbekiston defektologik xizmatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishga imkon beradi.

Defektologik xizmat nutq buzilishlarini aniqlash, diagnostika qilish va korreksiya jarayonini tashkil etish bilan shug‘ullansa, defektologik xizmat esa keng qamrovli psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatadi. Bu xizmatlar ta‘lim tizimining ajralmas qismi sifatida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil qilish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Defektologik xizmatning vazifalari va imkoniyatlari. Defektolog mutaxassislar imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda individual reabilitatsion va pedagogik dasturlarni ishlab chiqadi. Ular bolalarning kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va o‘qish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Defektologik xizmat quyidagi asosiy faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

- Psixodiagnostika va rivojlantiruvchi treninglar o‘tkazish;



- Maxsus didaktik materiallar asosida individual ta’lim rejasini ishlab chiqish; Ota-onalarga va pedagoglarga maslahat berish;

- Reabilitatsiya va ijtimoiy adaptatsiya bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Shuningdek, defektologlar psixolog, logoped va boshqa mutaxassislar bilan jamoada ishlash orqali har bir bola uchun eng optimal rivojlanish sharoitini yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tajribasida defektologik xizmatlarning rivojlanishi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator davlat dasturlari qabul qilindi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida logoped va defektolog lavozimlari joriy etildi. Ayni vaqtda maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida logopedik xonalar tashkil etilmoqda, mutaxassislarning malakasi oshirilmoqda. Biroq, sohada hali ham qator muammolar mavjud:

- Kadrlar yetishmovchiligi;

- Mutaxassislarning malaka darajasini oshirish zarurati; Metodik ta’minotning yetarli emasligi;

- Oilalar bilan hamkorlikning sustligi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat tomonidan tizimli choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagogika oliygohlarida logopediya va defektologiya yo‘nalishlari kengaytirilmoqda, malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda.

Xorijiy tajriba va zamonaviy yondashuvlar.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim samaradorligi logoped va defektologlarning faol ishtirokisiz to‘liq ta’minlanmaydi. Masalan, Germaniya, Skandinaviya davlatlari va AQShda logoped va defektologlar nafaqat ta’lim jarayonida, balki oilalarda, tibbiy markazlarda ham faol ishlaydi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida masofaviy logopedik mashg‘ulotlar, virtual diagnostika, interaktiv platformalar orqali o‘quvchi va ota-onalarga qulay xizmatlar taklif qilinmoqda. O‘zbekiston uchun ham bunday ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish dolzarbdir.

Xulosa

Inklyuziv ta’limda defektologik yondashuv bolaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifatli ta’limni ta’minlaydi. O‘zbekiston tajribasini jahon tajribasi bilan uyg‘unlashtirish va malakali kadrlarni stajirovkalar orqali rivojlantirish tizimi inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu yondashuv bolalarning jamiyatga moslashuvi, bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Kelgusida defektologik xizmatlarni yanada tizimli va innovatsion yo‘nalishda rivojlantirish – jamiyatimizda barqaror inklyuziya tamoyillarini amalga oshirishning eng muhim garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raximova, Z.A. Defektologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli Qarori. “2020– 2025 yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”. Toshkent, 2020.



3. Khamidova, N.K. Inklyuziv ta'lim: nazariy asoslari va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Ilm Ziyο, 2021.
4. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for inclusion and equity in education. Paris: UNESCO Publishing, 2017.
5. Smith, T.E.C., Gartin, B.C. Special Education: A Guide for Inclusion. New Jersey: Prentice Hall, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent, 2019.
7. European Agency for Special Needs and Inclusive Education. Inclusive Education in Europe: Key Messages and Findings. 2018.
8. G'ulomov, B.S. Psixologiya asoslari. Toshkent: Universitet, 2017.
9. Masharipova, M.K. Nutq rivojlanishidagi buzilishlar va ularni korreksiya qilish. Toshkent: Ma'naviyat, 201
10. Ziyο.net